

AGROKLASTERLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITINING SOLISHTIRMA TAHLILI

Mirzanov Z. M.

Qoraqalpoq davlat universiteti

Agroklastlarlar – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha bosqichlarini (fermerdan qayta ishlovchi korxonagacha) bir tizimga birlashtirib, qo'shilgan qiymat zanjirini yaxshilash va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qiluvchi murakkab iqtisodiy tuzilmalardir. Xalqaro tashkilotlar, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qishloq Xo'jaligi va Oziq-ovqat Tashkiloti (FAO), agroklastlar yondashuvining ahamiyatini agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va bozor integratsiyasini mustahkamlash orqali ta'kidlab keladi. FAO tadqiqotlarida klaster yondashuvi agrar ishlab chiqarish zanjiridagi vertikal va gorizontaal integratsiyani mustahkamlab, innovatsiyalarni keng joriy etish, tijorat bozorlariga ulanish imkoniyatlarini oshirishda muhim vosita ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Bu yondashuv kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarning bozor imkoniyatlarini kengaytirish, o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va jamiyat daromadini oshirishga xizmat qiladi. [2].

Dunyo Banki (World Bank) agroklastlar konsepsiyasini joriy qilingan loyihalar orqali amaliyotda qo'llaydi. Masalan, Ugandada amalga oshirilgan "Agriculture Cluster Development Project" loyihasining maqsadi ma'lum hududlardagi agrar klasterlarda fermerlarning hosildorligini, ishlab chiqarish miqdorini va bozorlanadigan mahsulot hajmini oshirishdir. Ushbu loyiha orqali klaster modeli orqali yirik qiymat zanjiri yaratilib, hosildorlik va savdo hajmi sezilarli darajada oshgani qayd etilgan [3]. Bu kabi tajribalar klaster yondashuvi agrar iqtisodiyotda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va kichik fermerlar uchun innovatsiyalarni joriy etish imkonini beradi.

OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti) ham agrar sektorning global ishlab chiqarish zanjirlari (Global Value Chains, GVCs) va agro-qishloq klasterlari bo'yicha siyosat tadqiqotlarini olib bormoqda. OECD tadqiqotlarida agro-qishloq mahsulotlarining global qo'shilgan qiymat zanjiriga qo'shilishi, davlat siyosatining rolini oshirish orqali bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, hamda clusterdagi innovatsion mexanizmlarni rag'batlantirish zarurligi ta'kidlangan [4]. Bu yondashuvlar agrar bozorlarni diversifikatsiya qilish va mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim ekanligi ilmiy asoslangan.

Xalqaro tajribaning umumiy xulosalaridan biri shuki, agroklastlarlarning samaradorligi ko'pincha quyidagi omillarga bog'liq: institutsional qo'llab-quvvatlash, innovatsion texnologiyalarga investitsiyalar, vertikal integratsiya, fermerlar va qayta ishlovchi korxonalar o'rtasidagi hamkorlik hamda bozor infrastrukturasi rivojlanishi. Bu tamoyillar klasterlar orqali ishlab chiqarish jarayonini soddalashtiradi, mahsulot sifatini oshiradi va eksport salohiyatini kengaytiradi, shu bilan birga kichik tadbirkorlik subyektlari uchun bozor kirish imkoniyatini yaxshilaydi [2].

O'zbekiston sharoitida agroklastlarlar tizimi so'nggi yillarda qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishning muhim modeli

to'qimachilik klasterlari faoliyatini rivojlantirishda quyidagi aniq amaliy qadamlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Birinchi navbatda, paxta-to'qimachilik klasterlarida yagona muvofiqlashtiruvchi boshqaruv markazini shakllantirish zarur. Mazkur markaz klaster ishtirokchilari – fermer xo'jaliklari, qayta ishlash korxonalari, logistika va savdo subyektlari o'rtasida shartnomaviy munosabatlarning shaffofligini ta'minlaydi. Xalqaro tajribada (Germaniya, Daniya) klaster menejmenti professional boshqaruv kompaniyalari orqali olib borilishi yuqori samaradorlikni ta'minlagan. O'zbekiston sharoitida ham klaster boshqaruviga malakali menejerlar va iqtisodiy tahlilchilarni jalb qilish, ularning faoliyatini KPI tizimi asosida baholash maqsadga muvofiqdir.

Paxta yetishtirishdan tortib tayyor to'qimachilik mahsulotini eksport qilishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish klaster samaradorligini sezilarli oshiradi. Xususan, AQSh va Janubiy Koreya tajribasiga tayangan holda, agroteknologiyalar, aqlli sug'orish tizimlari, hosildorlikni monitoring qilish uchun GIS va IoT texnologiyalarini qo'llash tavsiya etiladi. Taxminiy hisob-kitoblarga ko'ra, bir klaster doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun o'rtacha 8–12 mlrd so'm investitsiya talab etiladi. Mazkur xarajatlar hisobiga paxta hosildorligini 10–15 foizga oshirish, resurslar sarfini esa 12–18 foizga kamaytirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xorijiy tajribada (Kanada, Germaniya) agroklastlar faoliyatini moliyalashtirishda davlat-xususiy sherikchilik, tijorat banklari kreditlari, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hamda venchur investitsiyalar keng qo'llaniladi. O'zbekiston paxta-to'qimachilik klasterlari uchun ham moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur.

Masalan, klaster infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan umumiy investitsiya hajmining: 30–35 foizini davlat imtiyozli kreditlari, 40–45 foizini xususiy investorlar, 20–25 foizini xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan qoplash mumkin. Bu yondashuv moliyaviy risklarni kamaytirish bilan birga klasterlarning barqaror faoliyatini ta'minlaydi. Xalqaro tajribadan kelib chiqib, paxta-to'qimachilik klasterlarida differensial va fokusli marketing strategiyalarini qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Tayyor to'qimachilik mahsulotlarini eksport qilishda "Made in Uzbekistan" yagona brendini shakllantirish, ekologik toza va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishga ustuvorlik berish zarur.

Marketing tadqiqotlari va brendlash xarajatlari klaster umumiy aylanmasining o'rtacha 3–5 foizini tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'lib, bu uzoq muddatda eksport hajmini 20–25 foizga oshirish imkonini beradi.

Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyati natijasida hududlarda bandlik darajasi oshadi, aholi daromadlari barqarorlashadi va qishloq joylarda sanoatlashtirish jarayoni jadallashadi. Xorij tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali faoliyat yuritayotgan klasterlar hududiy YAIM o'sishiga yiliga qo'shimcha 1,5–2 foizlik hissa qo'shadi. O'zbekiston sharoitida ham klasterlar orqali mintaqaviy rivojlanishni jadallashtirish mumkin.

Yu

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.10.2019 yildagi PF-5853-son O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.04.2018 yildagi PQ-3680-son Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi Qarori.
3. Agro-based clusters in developing countries: staying competitive in a globalized economy. Food and agriculture organization of the United Nations Rome, 2010.
4. Document of the world bank restructuring paper on a proposed project restructuring of agriculture cluster development project approved on April 9, 2015 to republic of Uganda agriculture and food Eastern and Southern Africa.
5. How policies shape global food and agriculture value chains. OECD Food, Agriculture and Fisheries Papers. 27 February 2017.
6. Berdiev A. 2025. Agroklasterlar samaradorligini oshirish yo'llari. Международный научный журнал. 1, 2 (июль. 2025).

Annotatsiya. Maqolada agroklasterlar tizimini samaradorligini oshirishdagi xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoitidagi amalga oshirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Klaster yondashuvi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barcha bosqichlarini integratsiyalash orqali qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish va raqobatbardoshlikni oshirishga xizmat qilishi ko'rsatildi. Xalqaro va milliy tajribalar asosida paxta-to'qimachilik klasterlari misolida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va marketing strategiyalarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish usullari tavsiya etildi.

Kalit so'zlar. agroklaster, qo'shilgan qiymat zanjiri, samaradorlik, paxta-to'qimachilik klasteri.

Аннотация. В статье анализируются международный опыт и возможности адаптации систем агрокластеров в условиях Узбекистана для повышения их эффективности. Показано, что кластерный подход способствует интеграции всех этапов сельскохозяйственного производства, расширению цепочки добавленной стоимости и повышению конкурентоспособности. На примере хлопково-текстильных кластеров рассматриваются методы повышения эффективности через внедрение инновационных технологий, диверсификацию источников финансирования и совершенствование маркетинговых стратегий.

Ключевые слова. агрокластер, цепочка добавленной стоимости, эффективность, хлопково-текстильный кластер.

Abstract. The article examines international experience and the possibilities of adapting agrocluster systems in Uzbekistan to enhance their efficiency. It demonstrates that the cluster approach facilitates the integration of all stages of agricultural production, expands the value-added chain, and improves competitiveness. Using cotton-textile clusters as an example, the study outlines methods to increase efficiency through the implementation of innovative technologies, diversification of financing sources, and optimization of marketing strategies. The research findings provide a theoretical and practical basis for developing a national agrocluster model.

Key words. agrocluster, value-added chain, efficiency, cotton-textile cluster.